

## MUSTAQIL RIVOJLANISH JARAYONIDA MA'NAVIY HAYOT VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Mamatov Makhmut,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, sirtqi bo'lim boshlig'i, falsafa fanlari doktori, professor vazifasini bajaruvchi

## ОСОБЕННОСТИ ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ И ОБРАЗОВАНИЯ СОВЕРШЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Маматов Махмут,

Шахрисабзский государственный педагогический институт, заведующий

заочным отделением, доктор философских наук, и.о. профессора

## FEATURES OF SPIRITUAL LIFE AND EDUCATION OF THE ADULT GENERATION IN THE PROCESS OF INDEPENDENT DEVELOPMENT

Mamatov Mahmut,

Shahrisabz State Pedagogical Institute,  
head of the correspondence department,  
Doctor of Philosophy, acting. professor

*Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqil rivojlanish jarayonida ma'naviy hayot va barkamol avlodni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari, jamiyatning ma'naviy rivojlanish strategiyasida muayyan davr va jamiyatga xos belgilari, davlat siyosati bilan bog'liq xilma xil xususiyatlari va inson kamoloti bilan bog'liq turlichay namoyon bo'ladigan ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy jihatlari, aholi, ayniqsa yoshlarning ruhiyati va kayfiyatini rivojlantirish jarayonlari tahlil etilgan. Bunday belgilar va o'ziga xos jihatlar ushbu masalalarga doir tushunchalarning turli xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadigan falsafiy tamoyillar uchun umumiy mezon va tayanch omillari bayon etilgan. Uning jamiyatdagi zamонавиј тараqqiyoti amaliy ahamiyati asoslab berilgan, barkamol avlodni ma'naviy tarbiyalashning rivoji nuqtai nazaridan fikrlar asoslangan.*

*Kalit so'zlar: barkamol avlod, jamiyat, ma'naviyat, rivojlanish, strategiya, milliy, diniy, tarbiyaviy, qadriyat, yoshlar, g'oya, taraqqiyot, istiqbol, muammo, ilmiy tadqiqot.*

*Аннотация: в процессе самостоятельного развития, в уникальных сторонах духовной жизни и воспитания совершенного поколения, в стратегии духовного развития общества, в особенностях определенной эпохи и общества, в различных характеристиках, связанных с государственной политикой, и в различных проявлениях, связанных с анализирующим социально-философские, культурно-образовательные аспекты, процессы развития менталитета и настроения населения, особенно молодежи. Описаны общие критерии и факторы, поддерживающие философские принципы, влияющие на различные характеристики концепций, связанных с этими вопросами. Обоснована практическая значимость его современного развития в обществе, приводятся мнения с точки зрения развития духовного воспитания зрелого поколения.*

*Ключевые слова: гармоничное поколение, общество, духовность, развитие, стратегия, национальная, религиозная, образовательная, ценность, молодежь,*

*иdea, развитие, перспектива, проблема, научные исследования.*

*Annotation: In this article, in the process of independent development, the unique aspects of spiritual life and education of a harmonious generation are considered, in the strategy of spiritual development of society, the characteristics of a certain period and society, various features associated with state policy, various aspects related to human maturity, manifested socio-philosophical, cultural and educational aspects, processes of mental development and mood of the population, especially young people. General criteria and factors supporting philosophical principles that influence various characteristics of concepts related to these issues are described. The practical significance of its modern development in society is substantiated, opinions are given from the point of view of the development of spiritual education of the mature generation.*

*Key Words:* perfect generation, society, spirituality, development, strategy, national, religious, educational, value, youth, idea, development, perspective, problem, scientific research.

Kirish: Ma'lumki, jamiyatning ajralmas qismi hisoblangan yoshlar masalasi hamisha faylasuf, siyosatshunos, huquqshunos, tarixshunos, pedagog, psixolog, yozuvchi, shoirlar kabi turli soha sohiblarini qiziqtirib kelgan. Faylasuflar yoshlarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'rgansa, huquqshunoslар ularning huquqlari va huquqiy kafolotlarini, tarixchilar jamiyat tarixidagi o'rnini, psixologlar esa bularning ahvoli-ruhiy xarakterlarini, pedagoglar esa yoshlarga ta'lim-tarbiya berish masalalarini, siyosatshunoslар yoshlarning siyosiy hayotdagi rolini va o'rnini o'rganib kelishgan. Yoshlar masalasiga bunchalik e'tibor berib kelinayotganining sababi shundaki, ular o'z g'ayrati, shijoati, istiqboli, bilim-ma'rifatga intiluvchanligi, izlanuvchanligi va boshqa fazilatlari bilan kattalardan farqlanib turadi. Yoshlar o'zlaridan avvalgi ajdodlar qoldirgan ma'rifat, madaniyat, ma'naviyatni, an'ana, urf-odatlarni boyitib boradi, yangi-yangi tashabbuslar, islohotlar bilan ijtimoiy hayot tarixidan muayyan o'rinlar oladi. Shuning uchun jamiyat yoshlarining bilim olishlari, ma'lum bir kasbi-korni egallashlari, o'z dunyo qarashlarini shakllantirishlari, jismoniy yetukligini, ma'naviy jihatdan boyligini rivojlanitura borib o'zining kelajagiga asos soladi. Mustaqil rivojlanish jarayonida ma'naviy hayot va barkamol avlodni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari jamiyat ma'naviy taraqqiyot tamoyillari dinamikasiga xos tadrijiy taraqqiyotning umumiyligini qonuniylatlari va o'ziga xos xususiyatlarini maxsus tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilish maqsad qilib olingan mazkur maqola Mustaqil rivojlanish jarayonida ma'naviy hayot va barkamol avlodni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari orqali Yangilanayotgan O'zbekistonning yoshlarini tarbiyalashda xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: "O'tmishdagilar,-deb yozgan edi Abu Nasr Forobiy,-o'zlarida bo'lgan zavq-na'sha, lazzatni o'zlaridan keyingi keladigan avlod orqali nasldan-naslga qoldirib keladilar. Shu tartibda vaqt va zamon o'tishi bilan kishilarda zavq ustiga zavq, na'sha ustiga na'sha qo'shilib, ulardagi lazzatlanish, zavqlanish obyekti orta boradi. Mana bu holni biz farovonlik, haqiqiy baxt-saodat deb tasvirlaymiz".[1] Ushbu satrlardan ham ko'rinish turibdiki, o'tmish avlod o'zidan keyingi avlodga eng yaxshi boyliklarni meros qilib qoldiradi va keyinchalik bu merosni yoshlar o'z navbatida asrab-avaylab davom ettiradi. O'tmish tarixni varaqlar ekanmiz, yoshlar ma'naviyatiga, dunyoqarashiga, axloq-odobiga bag'ishlab o'lmas asarlar qoldirgan donishmandlarni alohida eslatib o'tishimiz lozim. Jumladan, Nizom ul-mulkning "Siyosatnoma", "Rushnoinoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul

haqoyiq”, Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub”, “Vaqfiya” kabi ma’nosi qimmatli, sermazmun asarlari bu o’rinda haligacha o’z qimmatini yo’qotmagan. Markaziy Osiyo mumtoz shoirlari Abdulqosim Firdavsiy, Abdullo Rudakiy, Nosir Xisrav, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Bobur, Mahtumquli, Ogahiy va boshqalar o’zlarining bebaho badiiy asarlarida jamiyat hayotiga, yoshlar ma’naviyati va dunyoqarashiga, tarbiyasiga oid qimmatbaho g’oyalarini olg’a surganlar, Vatan mehri, milliy g’urur, ma’naviyatni tarannum etganlar. Yoshlar ma’naviyati, istiqboli haqida fikr yuritar ekanmiz, buyuk qadriyatlardan hisoblanmish qadimgi zardushtiylik dini, buddizm, xristian va islom kabi jahon dinlarida yoshlarga bo’lgan juda ko’p dasturlarni ham sira unutmasligimiz darkor. Bularidan tashqari har bir jamiyat o’z sharoiti, xususiyati, ijtimoiy mazmuniga tayanib yoshlarni tarbiyalaydi, ma’naviyatini boyitadi, dunyoqarashini shakllantiradi. O’z navbatida yoshlar kattalardan orttirgan tajribalarini amaliyotda qo’llab, o’zlariga ma’qul bo’lgan ta’limotlarga asoslanib ish yuritadilar. Ular o’zlariga ma’qul an’ana, qadriyatlarni saqlab qolib, jamiyat taraqqiyoti uchun halaqit beradigan tomonlarini uloqtirib yoki o’zgartirib, tegishli ishda qatnashadilar. Mumtoz falsafa namoyandalari tarixning avlodlar almashinuvi ekanligini va bunda har bir avlod o’zidan avval yashagan ajdodlarning boyligidan, ishlab chiqaruvchi kuchlaridan, materiallaridan foydalanishini, shu bilan birga eski sharoitlarni o’z faoliyatları vositasida o’zgartirib o’z manfaatlariga moslashtirib borishini ta’kidlagan edilar. Aynan ana shu hayot haqiqati mamlakatimizning istiqlolga erishgan dastlabki o’n yilliklarda ham, bugungi kunda ham o’z isbotini topmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon 31 yildan ortiqroq vaqt o’tdi. Bu qisqa davrda barcha sohalarda amalga oshirilgan tub islohotlar, demokratik o’zgarishlar o’z samarasini bermoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan Yangi O’zbekiston strategiyasi va unda ilgari surilgan “Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili ijtimoiy rivojlanishning muhim g’oyasi sifatida tan olinmoqda. Bu tamoyil xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi sifatida xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda. Xullas, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab berdi. Biz bundan buyon faoliyatimizni “inson-jamiyat-davlat” degan tamoyil asosida tashkil etamiz. Bu boradagi vazifalarini amalga oshirishda ma’naviyat va ma’rifat sohasini yanada rivojlantirish bo’yicha amalga oshiriladigan ishlarning ommaviyligi va ochiqligiga erishish hamda ijtimoiy-ma’naviy, ilmiy-ma’rifiy hamda ta’lim-tarbiya sohalarida tizimlilik, ilmiylik va izchillikni ta’minalashga alohida e’tibor qaratish nazarda tutilgan. Ayni paytda fuqarolar ma’naviy barkamolligini ta’minalash, ular orasida teng va o’zaro manfaatli munosabatlarni ta’minalash, erkin tafakkur tarzi, inson huquqlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish va qarashlar xilma-xillagini rivojlantirish, inson ruhiyati va kamolotiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi g’oya va ta’limotlarga murosasiz kayfiyatni tarbiyalash ham bu boradagi dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Ma’lumki, “insoniyatning ko’p ming yillik tajribasiga ko’ra, har qanday tub yangilanish, inqilobiy o’zgarish ilm-ma’rifatsiz, ma’naviyat, madaniyatsiz sodir bo’lishi mumkin emas. Buni barcha Renessans davlarining voqeа-hodisotlari tasdiqlaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda mustaqillik qo’lga kiritilishi bilan mazkur masalaga alohida e’tibor qaratildi. Bugungi kunda esa unga e’tibor yanada kuchaydi. Bu jihatdan, Taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo’nalishi, ya’ni ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish sohasidagi ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlar alohida ahamiyatga molikdir”[2].

Ushbu yo’nalishda B.T.To’ychiyev, O.R. Musayev, F.N.Juraqulov, M.Quronov, A.A. Mavrusov, Q.N. Nazarov, M. Qirg’izboyev, Q.Quranboyev, V.Qo’chqorov, N.Mamanazarov, N.Umarova, S.M. G’afurov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida

ham biz tanlagan mavzuning o‘z tadqiqotlariga aloqador ba‘zi jihatlari maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, O‘zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlari, respublika, mahalliy hokimiyat organlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik institutlarining me’oriy va boshqa hujjatlari, shuningdek, Sharq va Yevropa, Markaziy Osiyo va jahon falsafiy tafakkurining muammoga daxldor ilmiy-nazariy konsepsiyalari, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi, ular tomonidan yaratilgan asarlar ham ushbu maqolani yoritishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, mamlakatimizda chop etilayotgan ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallardagi Mustaqil rivojlanish jarayonida ma’naviy hayat va barkamol avlodni tarbiyalashning o‘ziga xos jihatlari bag‘ishlangan ilmiy-ommabop maqolalar, mazkur mavzuga doir kitoblar va risolalar, keyingi yillarda himoya qilinayotgan dissertatsiyalar ham muhim manbalar sifatida xizmat qilganini alohida ta’kidlashimiz joizdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy-ma’naviy va ilmiy-ma’rifiy sohalarini yanada takomillashtirish, jamiyatdag‘i ma’naviy barqarorlik va hamjihatlik, qonun ustuvorligi va xavfsizlik kafolatlarini mustahkamlash, Uchinchi Renessansni barpo etuvchilarining yaksak ma’rifatli avlodini tarbiyalash, barkamol shaxsni shakllantirish mamlakatimizda ma’rifatli jamiyat barpo etish mazkur yo‘nalishdagi faoliyatning asosiy mazmunini belgilaydi. Bu jihatdan, tarix fanlari doktori, professor A.Mavrulov ta’kidlaganidek: “Boy o‘zbek madaniyati bugun o‘zining milliyligini saqlab qolgan holda, barkamol shaxsni tarbiyalash, barqaror ijtimoiy-madaniy muhitni barpo etish, jamiyatda sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish, odamlarda tafakkur o‘zgarishlarini sodir etsagina o‘zining asosiy vazifalarini bajargan bo‘ladi. Ana shundagina bugun yurtimizda keng jaranglayotgan “Yangi O‘zbekiston-Uchinchi Renessans sari” shiorini real harakatga keltira olamiz”[3].

Ushbu yo‘nalishda yoshlarga alohida ahamiyat qaratilayotgani aslo beziz emas, zero O‘zbekiston-yoshlar mamlakati. Yurtimiz aholisining 60 foizidan ko‘pini yoshlar tashkil etadi. Shunday ekan, yoshlar masalasi har doim e’tiborda bo‘ladi. Ularning har tomonlama barkamol avlod bo‘lib yetishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, kitobxonlikni targ‘ib qilish ham mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini qurish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ladi. Buni biz mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan paytidayoq belgilangan tadbirlardan bilsak bo‘ladi. Mamlakatimiz yangi jamiyat qurish borasida eskidan meros bo‘lib o‘tgan hamma tuzilmalar, yo‘nalishlar, muassasalardan voz kechdi va mutlaqo yangi istiqlol yo‘lini tanlab, yangi boshqaruv tuzilmalarini tashkil qilishni lozim topdi. Shunday ekan, o‘tish davrida barcha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy masalalar bilan bir qatorda yoshlar siyosati masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yoshlar jamiyatda yashab faoliyat ko‘rsatayotgan guruhlar orasidagi endigina o‘ziga hayotiy tajriba orttirib kelayotgan va bilim egallayotgan sotsial-demografik guruhdir. Yoshlik shijoatga boy, qahramonlik va mehnat qilishga tayyor, romantikaga berilgan davrdir. Yoshlarni tarbiyalash, o‘qitish, kelajakni boshqarib keta oladigan kishilar qilib voyaga yetkazish eng muhim vazifa, hatto murakkab muammolardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz yoshlari juda katta kuch. Agar ularning ijtimoiy tabaqlashtirish tomonlarini o‘rganadigan bo‘lsak, ular turli guruhlarga bo‘linadi. Jumladan, ularni shahar yoshlari, qishloq yoshlari, talaba yoshlar, o‘quvchi yoshlar, ishchi yoshlar, tadbirkor yoshlar, fermer, dehqon yoshlari va boshqa sohalarda shug‘ullanayotgan yoshlarga bo‘lish mumkin. Ularning hammasi o‘ziga tegishli xususiyatga, xarakterga, bilimga, kasb-korga, qiziqishga ega. Bu bilan bog‘liq mavzuni va masalalarni o‘rganish alohida, maxsus ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Tahlillar shundan dalolat beradiki, mustaqillik

iqtisodiy, ijtimoiy masalalarda jiddiy islohotlar o'tkazish bilan birga ma'naviy, madaniy, ma'rifiy, huquqiy sohalarda ham tub o'zgarishlar amalga oshirilishida katta rol o'ynadi. Agar ma'naviyat sohasi bo'yicha to'xtaladigan bo'lsak, mustaqillik tufayli ma'naviyatimizning tarixiy ildizlarini o'rganishga, ma'naviyatini yuksaltirishga alohida e'tibor berila boshlandi. Istiqlolning dastlabki o'n yilligidayoq, ma'naviyatga katta e'tibor qaratildi, respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar natijasida bu jabhaga tegishli bir qator asar, to'plam, monografiyalar yaratildi. Ularning mualliflari ma'naviyatning mazmuni, mohiyatini ochib berishga harakat qilganlar. Bu o'rinda, avvalo, shuni aytish kerakki, mamlakatimizda ma'naviyatning mohiyatini ochib beradigan nazariy asar sifatida Birinchi Prezidentimiz asarlaridan o'rin olgan ma'naviyat masalalarini alohida qayd qilish lozim. Ularda ma'naviyatimizning ildizlari qanchalik qadimiy o'tmishimizga borib tutashib ketishi, ma'naviyatni boyitishda islom, Markaziy Osiyoda yashab faoliyat ko'rsatgan buyuk mutafakkir va ma'rifikatparvarlar meroslari, islom ta'limoti alohida o'rin olganligi ta'kidlangan. "Birinchi navbatda, -degan edi marhum davlatimiz rahbari, -milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish lozim. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz-shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitish, so'zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e'tiqodining erkinligini ta'minlashimiz kerak"[4]. Prezidentimizning "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va uning asosida qabul qilingan Harakatlar strategiyasi, 2017-yil 30-iyuldag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi hamda 2021-yil 26-mardagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan yangilash to'g'risida" qarorlari va yuqorida keltirilgan fikrlarimiz maqolamizning eng muhim nazariy asosi va tayanch metodologik vositalaridir.

Tahlil va natijalar. Falsafiy fanlar nuqtai nazaridan, bugungi kunga kelib dunyodagi global muammolarning keskinlashishi va ularni bartaraf etishning ma'naviy-mafkuraviy omillari bilan bog'liq masalalarini tahlil qilishga e'tibor kuchaydi. Bu boradagi xurujlar va tahdidlarning Mustaqil rivojlanish jarayonida ma'naviy hayat va barkamol avlodni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlariga salbiy ta'sirini bartaraf etishning samarali yo'llari va imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan izlanishlar orasida T.Jo'rayev, Sh.Paxrutdinov, A. Mo'minov, I. Ergashev, N. Jo'rayev, R. Jumayev, U. Idirov, F. Ravshanov, Sh. Qahhorova, M. Yuldasheva va A. Tashanov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. "Unda maktab, kutubxona, teatr va boshqa madaniy maskanlarni ko'paytirish, ularning ish sharoitini yaxshilash, ularga ajratilayotgan mablag'larni to'g'ri sarflash lozimligi, ma'naviyatni yuksaltirish, o'qituvchi, ijodkorlar, madaniy-oqartiruv muassasalaridagi va boshqa sohalardagi ko'plab mutaxassislarga, olim va ijodiy xodimlarga e'tiborni kuchaytirish to'g'risidagi ko'plab fikrlar yuritilgan. Mana shu dolzarb masalalarda o'sib kelayotgan avlodga va uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish lozimligi, yoshlar esa xalq ma'naviyatining ham mahsuli, ham kelajagi ekanligi ta'kidlangan"[5].

Ma'naviyat sohasida istiqlolning birinchi o'n yilligida nashr etilgan ilmiy-ommabop adabiyotlar haqida to'xtalib o'tish va ularda ma'naviyatning ma'nosini, mazmunini ochib berishga qanchalik e'tibor berilganini o'rganish yoshlarni tarbiyalashda, shuningdek, falsafa, siyosatshunoslik, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlar uchun ham katta ahamiyatga egadir. Ma'naviyat haqida olimlar bergen talqinlar ustida gap yuritar ekanmiz M.Imomnazarovning "Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari" monografiyasida ham bu masalaga alohida to'xtalib o'tilganligini eslab o'tish joizdir. Muallif "Ma'naviyat nima?" degan savolni o'rta ga tashlab, unga javob berishga harakat qilgan. Uning fikricha, "Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy nur, oliy haqiqat nuri bo'lib,

shu sababdan buyuk bobokalonlarimiz inson qalbini “Haqiqat asrorining ganjinasi” deb ataganlar. Haq asrori esa shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga ahli bashar qudrati yetmaydi. Zotan, hech bir odam bolasi “uni inson darajasiga ko’taradigan asoslarning asosini o’z aqli bilan tom ma’noda qamray olmaydi”[6].

Ko’rinib turibdiki, muallif ma’naviyatni ilohiy nurga o’xshatadi. Bu, albatta, muallifning fikri, bu uning erkin fikrashi va eng muhimi, mustaqil O’zbekiston sharoitida har bir fuqaro uchun o’z fikrini ochiq bayon etish uchun yaratilgan sharoit, huquq va davlat tomonidan kafolatlanishidir. Biroq ilmiy falsafada dunyoviy mazmundagi g’oya, qarash, ma’lumotlar haqida fikr yuritiladi. M.Imomnazarov ma’naviyat haqida fikr yuritar ekan, yana shunday deydi: “Ma’naviyat aslo mavhum narsa emas. Ahli bashar ma’naviyatsiz bo’lmaydi, chunki aslida inson o’zi moddiyat va ma’naviyatning birligidir, xolos. Unda tabiiy ehtiyojlar bor va ma’naviy dunyo bor. Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqqa xalqlarining o’z ma’naviyati bor. Bu ma’naviy dunyo zamon va makonda o’zgarib, goh kamolot sari yuksalib, goh qashshoqlashib turadi”[7].

Ma’lumki, ma’naviyat kategoriyasi keng qamrovli, nihoyatda teran mazmunlidir. Shuning uchun ma’naviyat deganda barcha xalqlarga tegishli, umuminsoniyatga taalluqli axloq me’yorlari, inson uchun mo’tabar qonun-qoidalar tushuniladi. Shunday ekan, ma’naviyat haqida fikr yuritayotganda milliy ma’naviyatni ham unutmaslik kerak. Milliy ma’naviyat har bir millatga tegishli, uning o’ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi belgilar majmuasidir. Milliy ma’naviyat bo’lmasa, millatlar o’rtasidagi mavjud ma’naviyatni anglab bo’lmaydi. Milliy ma’naviyat deganda, biz o’zbeklarda, ularning qadimiy tarixiga borib taqaladigan, o’tmishimizning buyuk allomalari hayoti, ijodidan o’rin olgan ma’naviy meroslar, ong va o’z-o’zini anglash, axloq-odob qoidalari, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlar yig‘indisi, dialektik birligi, mushtarakligi tushuniladi. Albatta, bular umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarga kiradi. Ular, yuqorida qayd qilib o’tganimizdek, xalqparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va boshqa g’oya, fazilatlardir. Bu o’rinda biz yana M.Imomnazarovning “Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari” asari haqida to’xtalib, unda milliy ma’naviyatimiz haqida yuritilgan mulohazalari ustida o’z munosabatimizni bildirmoqchimiz. Muallif milliy ma’naviyatning tarbiyalanishi jarayonini bayon etar ekan, uning avvalo tarixiy hodisa ekanligini va u bir kunda va hatto bir asrda ham mukammal shakllanmasligini ta’kidlaydi. Jumladan, uning fikricha, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qa’riga singib ketgan bo’lib, ularning necha ming yillik ma’naviy kamolot pillapoyalarini bosib o’tganligini aniqlash bugun uchun murakkab muammodir”[8]

Biz o’rgangan adabiyotlarda ma’naviyatning mazmunini ochib berishga, uning ta’rifini berishga har bir muallif o’zining bilim doirasi, falsafiy fikrashi, dunyoqarashi nuqtai nazaridan yondashadi. Shular qatorida sharqshunos olimlardan biri, filologiya fanlari doktori, professor I.Abdullayevning mulohazalarini keltirish mumkin. U manbashunos mutaxassis sifatida “Milliy tiklanish” gazetasining 1996-yil 12-noyabr sonida chop etilgan “Ma’naviyat va ma’rifat” maqolasida ma’naviyat so’ziga tavsif bergen. Olimning fikricha, ma’naviyat arabcha so’z bo’lib “ma’no” fe’lidan olingan, ruh, aql, ong, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyat, dadillik, jasorat, xususiyat, mohiyat, g’amxo’rlik, qayg’urish, did kabi bir qancha ma’nolarini anglatadi. Shu bilan birga, uning ma’rifat so’ziga yaqin ekanligini ta’kidlagan. Muallif “ma’rifat” so’zi bilim, bilish, ma’lumot, tanishish ma’nolarini bildirishini bayon etgan. I.Abdullayev ma’naviyat so’zining mazmunini, mohiyatini ochib bergen va uni tegishli misollar bilan tahlil etishga harakat qilgan, biroq unga ta’rif bermagan. Z.G.ofurov, B.Siddiqov “Ma’naviy yuksalish-taraqqiyot omili” nomli qo’llanmasida ma’naviyat, uning mazmuni va mohiyati, o’ziga

xos xususiyatlari haqida fikr yuritganlar. Mualliflar ma'naviyatning mazmuni haqida o'z mulohazalarini bayon etar ekanlar, "Ma'naviyat keng va chuqur tushunchadir, deb ta'kidlaydilar, -insonning chin insonligi olamning sarvari, mavjudodlarning gultoji ekanligi, uning ma'naviyatida ham zohiriyl, ham botiniy ma'naviy olamida o'z ifodasini topadi". Bugungi kunda ana shunday mutafakkirlarning g'oya va qarashlarini chuqur o'rganish va ularning asarlaridagi fikr va qarashlarini keng targ'ib etish imkonini beruvchi izlanishlar va tadqiqotilarga ehtiyoj ortib borayotgani aslo bejiz emas.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ma'naviyat-xalq, millat, inson va shaxsning odob-axloqi, burch va mas'uliyat tuyg'usi, ilmiy bilimi, amaliy mehnat va ijod malakalari, iste'dod va qobiliyati, diniy va dunyoviy ilmi, e'tiqodi, vijdoni, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlari tizimining yaxlit birligidir. Afsuski, mualliflar bu qaydlarga ongi kiritishni unutganlar, binobarin, ma'naviyat kishi ongigagina xos ekanligini anglab yetmaganlar. "Boshqacha qilib aytganda, ma'naviyat-odamlar o'rtasidagi yuksak odob-axloq normalari, huquqiy mezonlar, mafkuraviy e'tiqodlarga asoslangan adolatlilik, insonparvarlilik, halollik, baynalmilallik bilan sug'orilgan munosabatlarning ko'rinishidir"[9]. Bu o'rinda hurmatli mualliflar ifodasi, majmuasi o'rniga "ko'rinish" so'zini ishlatganlar. Vaholanki, ma'naviyat ko'rinnmaydi, ifodalananadi, namoyon etiladi.

Qo'shimcha sifatida shuni aytish mumkinki, mualliflar ma'naviyat ma'nosini, mohiyatini tushuntirib berishda anchagina muvaffaqiyatlarga erishganlar. Ular ma'naviyatni axloq, burch, mas'uliyat, ilmiy bilim, mehnat, iste'dod, qobiliyat, ijod, dunyoqarash, imon, e'tiqod, mafkura va boshqa tushunchalarni o'z ichiga olishini tushuntirishga intiladilar. Ma'naviyat juda keng ma'noli kategoriya bo'lganligi sababli o'zining mazmuni va mohiyati bilan mualliflar keltirgan ma'nolarni ham o'z ichiga oladi. Lekin, bizning fikrimizcha, mualliflar mazkur qo'llanmada ma'naviyatga alohida ta'rif va talqin bergenlarida yanada maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ma'naviyatning ma'nosini naqadar kengligini mualliflarning o'zlarini ham tan olganlar. Ularning yozishlaricha: "Ma'naviyatning ma'nosini shunchalik keng va chuqurki, inson uni o'z aqli bilan tom ma'noda butunlay qamrab ololmaydi. Ma'naviyat insonni inson darajasiga ko'taradigan jamiki asoslarning asosidir"[10]. Bu o'rinda "insonni inson darajasiga ko'taradigan" iborasi falsafiy, mantiqiy jihatdan aniq emas. Unda qanday inson darajasiga ko'taradi, degan savolga javob yo'q. Umumlashtirib baho bersak, Z.G.ofurov, B.Siddiqovning mazkur qo'llanmasi ma'naviyat masalalari bo'yicha yaratilayotgan adabiyotlar qatoridan o'ziga munosib o'rin olgan asardir. Obrazli qilib aytganda, chakki emas, chakkidan holi ham emas.

Ma'naviyat haqida fikr yuritar ekanmiz, u mustaqil taraqqiyotning tarkibiy qismi ekanligini ham ta'kidlab o'tishimiz lozim. Chunki mustaqillik bor joyda ma'naviyat rivoj topadi, u yo'q joyda ma'naviyat rivojlanmay qolib ketadi. Faqat mustaqillik olg'a surilgan muayyan maqsadlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Bu fikrlarni Yurtboshimizning asarlarida ham, Oliy Majlisda so'zlagan nutqlarida ham, olim va yozuvchilar asarlarida ham uchratamiz: "Mustaqillik faqat iqtisodiy o'zgarishlarda, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishidagina emas, balki odamlarning ongida, ma'naviyatida ham muqarrar qaror topishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham mustaqillikning ma'naviy zamini benihoya katta ahamiyatga ega bo'lgan omilki, buni hech qachon ikkinchi o'ringa surib qo'yib bo'lmaydi"[11].

Mazkur mualliflar istiqlol ma'naviyati nazariyasini yaratish lozimligi, uni xalq orasida, jumladan, yoshlar uyushmalarida keng va muttasil targ'ib etish lozimligini ta'kidlab, bunday deb yozganlar: "Mustaqillik ma'naviy zaminining muhim tomonlaridan yana biri jamiyatimiz taraqqiyotining ilmiy nazariyasini yaratish va xalq orasiga keng yoyishdir. Mustaqillikning ilmiy nazariyasini yaratish va uni hayotga tatbiq etish suv

bilan havodek zarur. Ilmiy nazariya bizning kelajagimizni, istiqlol yo‘limizni oldindan ko‘rsatib turadi. Odamlar hech qachon ertangi kunga, kelajakka ko‘zlarini yumib yoki tavakkaliga ish tutib bora olmaydilar. Bunday yo‘l tutish odamlar uchun ham, jamiyat uchun ham juda xavfli, xatarlidir”[12].

Bunday dog‘larni faqat ta’lim-tarbiya, u kor qilmasa huquq-tartibot organlari orqali bartaraf etish mumkin. Ma’naviyatlilikning qarama-qarshisi, ilmiy-falsafiy tilda ma’naviyatsizlik, oddiy, jonli tilda bema’nilikdir. Bunday odam o‘z o‘rnini bilmaydi, ilmiy saviyasi past, ma’naviyligi qashshoq, madaniy tomondan qoloq, beta’lim, axloqsiz, ijtimoiy-siyosiy tomondan faoliyatsizdir.

Ma’naviyati past yosh yigit-qizning ichki dunyosi omonat, o‘zi laqma, irodasi bo‘sh, badiiy didi past, dunyoviy imoni beqaror, e’tiqodi zaif bo‘ladi. Bunday odam bora-bora tubanlashib, o‘g‘ri, talonchi, bosqinchi, hatto qotil bo‘lib qolishi ham mumkin. Yuqorida ma’lumotlar Mustaqil rivojlanish jarayonida ma’naviy hayot va barkamol avlodni tarbiyalashning o‘ziga xos jihatlari orqali barkomol avlodni tarbiyalash uchun asos bo‘la oladi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри.-Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1993.-Б.190.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2022 й, 6-сон).www.lex.uz
3. Маврулов А. “Маданият ва Учинчи Ренессанс ёхуд беқиёс ирода кучи ва виждан амри билан...”-“Янги Ўзбекистон” газетаси 2021 йил 10 декабрь.
4. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 1994.-Б. 65-66.
5. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 1994.-Б. 66.
6. И момназаров М. Миллий маънавиятимизнинг такомил босқичлари.-Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти, 1996.-Б. 6.
7. И момназаров М. Миллий маънавиятимизнинг такомил босқичлари.-Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти, 1996.-Б.6.
8. И момназаров М. Миллий маънавиятимизнинг такомил босқичлари.-Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти, 1996.-Б.7.
9. Faafurov Z., Siddikov B. Maʼnaviy юксалиш-тараққиёт омили.-Toшкент: Toшкент давлат техника университети. 1997.-Б. 23-24.
10. Faafurov Z., Siddikov B. Maʼnaviy юксалиш-тараққиёт омили.-Toшкент: Toшкент давлат техника университети. 1997.-Б. 23-24.
11. Faafurov Z., Toшев С. Mustaқillikning maʼnaviy заминлари.-Қарши: 1994.-Б. 7.
12. Faafurov Z., Toшев С. Mustaқillikning maʼnaviy заминлари.-Қарши: 1994.- Б.10.